

INSHONING MAZMUN MOHIYATI VA UNING TURLARI.

Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 19- umumiy o'rta ta'lim maktabning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Shukurova Fazolat Maxammatqulovna

Annotatsiya: Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi. Ushbu maqolada inshoning mazmun mohiyati va uning turlari haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: *insho, kichik og'zaki axborot, ehtirosli hikoya, jiddiy rejali aqliy ish, ijodiy ish, maktablar, o'quvchilar nutqi.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ona tilini o'qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21- oktabrda qabul qilingan «O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi»¹ va yana bundan tashqari 2016-yil 13-mayda birinchi prezidentimiz tomonidan e'lon qilingan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"²gi farmonda ham o'zbek tili ravnaqini ta'minlaydigan, takomiliga xizmat qiladigan, dunyo miqyosidagi nufuzini oshiradigan, tilshunoslik sohasini rivojlantiradigan, til ta'limini takomillashtiradigan mutaxassis-kadrlar tayyorlash masalasi alohida tilga olinganlini fikrimizning yaqqol isbotidir. Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Insho birinchi sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни //Ўзбекистоннинг янги Қонунлари: Тўплам. – Т., 1996. – Б. 20-30.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида" ги ПФ-4797 сонли Фармони. 2016 йил 13 май.

tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

„Insho“ arabcha so'z bo'lib, ma'nosi *„yaratish“*, *„bino qilish“*, *„boshlash“* demakdir. Bu so'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho -- ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgi-lash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy ku-chini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi in-shoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, „o'ziniki“ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi — inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan yangi dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vosi-talaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, „texnik“ vazifalar ham amalga oshi-riladi, ya'ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor be-rish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal

qilinadi. Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho **material manbaiga ko'ra** uchga bo'linadi:

1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;

2) kitob material, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho. **Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra** insho

ikki turli bo'ladi:

1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;

2) alohida mavzu asosida yakka tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Insho struktura jihatidan kirish so'zi bilan boshlanib, so'ng mavzu va g'oya yoritiladi, undan keyin xulosa qilinadi. Xullas, mavzu, g'oya, material, faktlar, reja va tezis hamda xulosa inshoning asosiy nazariy vositalaridir. Ba'zan insho yozish jarayonida mavzuga jiddiy e'tibor berilmasligi tufayli g'oya, mazmun yetarli asoslanmaydi, natijada mavzu yaxshi yoritilmay qoladi. Ba'zida esa mavzuga aloqasi bo'lmagan, ortiqcha gaplar ko'p bo'lganligi uchun insho mazmuni sayoz bo'ladi. Bu mavzu va g'oyani oldindan konkret tasavvur etmaslikdan kelib chiqadi. Mavzu va g'oyani yetarli ochishda epigraf tanlay bilish ham muhim o'rin tutadi. G'oyaning yoritilishi yana mavzuga

qanday munosabatda bo'lishga ham bog'liq. Qo'yilgan masalaga baho berish inshoning asosiy g'oyasini keltirib chiqaradi. Xullas, mavzu tanlab olingan biror yo'nalish bo'lib, shu yo'nalish bo'yicha fikr-mulohaza yuritishdan iborat. Inshoning mavzusi va g'oyasini aniq tasavvur etish uchun badiiy asarlarni ko'proq mustaqil tahlil qilish, mavzu va g'oyasini aniqlash mashqlari muhim o'rin tutadi. O'quvchi insho mavzusiga oid masalalarni mustaqil hal qilish bilan birga, ba'zan iqtibos (sitata)lar ham keltiradi. Klassik adiblar asarlaridan, qonun va hujjatlardan, shuningdek, boshqa asarlardan keltiriladigan iqtiboslar boshqa mualliflar o'z ishlarida ko'chirib ishlatgan kitob, jurnal va boshqalardagi matnlardan emas, balki birinchi manbaning o'zidan (oxirgi nashridan) olinishi kerak. Iqtibos va ko'chirmalar o'zining asl nusxasiga to'la mos bo'lishi kerak, ya'ni uning hamma xususiyati saqlanishi lozim, chunonchi, uslubi ham, punktuatsiyasi va harflarining terilish turlari ham aslida qanday bo'lsa, xuddi shunday bo'lishi kerak. Avvalgi imloda nashr etilgan asarlardan olinadigan iqtiboslar hozirgi orfografik qoidalar asosida beriladi, lekin muallifning fikri buzilmasligi kerak. Iqtibos bibliografik ma'lumotli bo'lishi shart, ya'ni asarning muallifi, iqtibos olingan asarning nomi, qayerda nashr qilinganligi, nashriyotning nomi, bosilgan yili va sahifalari ko'rsatilishi lozim. Aslida iqtiboslar yozma ishlarda o'z fikrini tasdiqlash va isbotlash maqsadida keltiriladi. Sitata, ya'ni iqtibos ustida ishlashning ahamiyati katta. Ayniqsa, insho yozish paytida, obrazlarga xarakteristika berishda iqtibos keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Lekin yozma ishlarda keltiriladigan iqtiboslar matn mazmuniga mos bo'lmasa va o'rinli ishlatilmasa, fikr izchilligi yo'qoladi. Epigraf tuzilishi jihatidan iqtibosga o'xshaydi, chunki u ham xuddi iqtibosdek aynan ko'chirib olinadi, muallifi, manbasi ko'rsatiladi. Biroq ular o'zni jihatidan farq qiladi. Iqtibos yozma ishning bayon etilishi davomida qo'llansa, epigraf qisqa bo'lib, yozma ishda sarlavhadan keyin yoziladi. To'g'ri tanlangan epigraf yozma ishning asosiy mazmuni va mavzusini aniq ifodalab turadi. Epigraf ham turli asarlardan, buyuk kishilarning nutqlaridan, xalq maqollaridan va aforizmga aylanib qolgan har xil hikmatli so'zlardan tanlab olinadi.

Insho yozish jarayoni quyidagi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi.

Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.

Uni oqqa ko‘chirib yozish. Inshoning qoralama nusxasi ishning dastlabki bosqichi bo‘lganligi uchun unda o‘chirilgan, so‘zlarning o‘rni almashtirilgan, jumlar tuzatilgan o‘rinlarning bo‘lishi tabiiy. Qoralama nusxadagi bunday tuzatishlar ish tekshirilayotganda xato hisoblanmaydi va ular hisobga olinmaydi. Insho tekshiruvchi, hatto ba‘zi bir paytlarda oq nusxadagi jumalarning g‘alizligini aniqlashtirish maqsadida qoralama nusxaga uni solishtirishi, agar unda jumla to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, oq nusxadagi xatoni hisobga olmasdan ketishi ham mumkin. Bu esa amaldagi qoidalarga muvofiq bo‘ladi. Qoralama nusxada ham insho uchun reja tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va lo‘nda shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxani haddan tashqari bo‘yab, inshoni o‘ta e‘tiborsizlik bilan yozish maqsadga muvofiq emas.

Xomaki nusxani yozishda quyidagi holatlarga diqqatni qaratish tavsiya etiladi.

Inshoning xomaki nusxasini tayyorlash uchun tavsiyalar:

- Qaysi mavzu bo‘yicha insho yozishingizni puxta o‘ylab oling. Nimalar haqida yozish lozimligi ustida bosh qotiring.
- Insho mavzusiga oid materiallarni, masalan, yozuvchi, uning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, siz insho yozmoqchi bo‘lgan asar va uning yozuvchi ijodida tutgan o‘rni, asarning mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishlari, bosh qahramonlari, asardagi
 - voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan insho yozish uchun birinchi galda kerak bo‘ladigan holatlarni eslang, so‘ngra ularni qog‘ozga tushira boshlang.
 - Insho bo‘yicha eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlarni yig‘ib chiqing.
 - Insho mavzusini yoritish uchun o‘zingizga ma‘qul kelgan usulni tanlang.
 - Insho uchun reja tuzib oling va mazkur reja asosida insho yozishga kirishing.

➤ Insho yozayotganda fikrlaming izchilligiga, insho materiallarining aniq va lo‘nda shakllarda berilayotganligiga alohida e‘tibor berib boring.

➤ Inshoning qoralama nusxasi tayyor bo‘lgach, uni diqqat bilan o‘qib chiqing. O‘qiyotganingizda quyidagi holatlarga e‘tibor qiling. Insho mavzusi yetarlicha yoritilganmi? Inshoning mazmuni talabga javob bera oladimi yoki yo‘qmi? Inshoda ortiqcha so‘z va gaplar uchramaydimi? Agar shunday so‘z va gaplarga duch kelsangiz ularni insho matnidan chiqarib tashlang, bo‘sh ko‘ringan o‘rinlarni to‘ldiring.

➤ Inshoning tiliga alohida e‘tibor qiling.

➤ Yozganlaringizni oqqa ko‘chiring.

➤ Inshoning qoralama nusxasi but bo‘lgach, uni oqqa ko‘chirish jarayonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o‘ziga xos tartibotlariga qat‘iy rioya qilish kerak. Inshoning oq nusxasida o‘chirilgan va ustiga yozib qo‘yilgan joylar bo‘lmasligi lozim.

➤ Inshoning sarvarag‘iga o‘quvchining ism-sharifi yoki unga aloqador bo‘lgan so‘zlar amaldagi tartib-qoidalar asosida yozib qo‘yilishi shart. Insho ustiga turli xil belgilar qo‘yilmaydi.

➤ Insho yozib bo‘lingandan so‘ng u o‘quvchi tomonidan diqqat bilan o‘qib chiqiladi va har ikkala nusxa sarvaraq bilan birgalikda o‘qituvchiga topshiriladi.

O‘quvchilarga belgilab berilgan insho mavzularidan tashqariga chiqish, insho mavzularini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish, o‘zlari xohlagan mavzu bo‘yicha insho yozish huquqlari berilmaydi. Inshoni baholash paytida oq nusxadagi mazmun va savodxonlik hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A. Karimov . “O`zbekiston buyuk kelajak sari”. T., O`zbekiston, 1998 yil.
2. I.A. Karimov . “Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., Sharq. 1999 yil.
3. Ta'lim taraqqiyoti. (Umumiy o`rta ta'lim davlat ta'lim standarti. Boshlang`ich ta'lim. Ona tili dasturi.) T., Sharq 1999 yil.
4. Boshlang`ich ta'lim bo`yicha yangi taxrirdagi Davlat ta'lim standarti. T., “Boshlang`ich ta'lim”, 2005 yil. 5- soni.
5. O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., 1998 yil.
6. O`zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiya G`G`Til va adabiyotG`G` ta'limi jurnali, 1994 yil 1-2-son.
7. Abdullaeva Q. va boshqalar. “O`qish kitobi” 2-sinf “O`qituvchi ” 2004 yil.
- 8.. Saparova R. va boshqalar. «Alifbe», T., «Ma'naviyat», 2005 yil.
9. Abdullaeva q. va boshqalar. Savod o`rgatishdarslari. T., “O`qituvchi ”, 1996 yil.
10. Abdullaeva K. Diktantlar to`plami. To`rt yillik boshlang`ich maktablar uchun. T., “O`qituvchi ”, 1997-yil.